

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**5-2025  
IJTIMOIY  
FANLAR**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

## IQTISODIYOT

**H.V.Ivонина, Ф.Ч.Бойко**

Сравнительный анализ моделей организационного туризма в Европе, СНГ и Азии: институциональные уроки для Узбекистана ..... 5

**Е.В.Голышева, Ш.Г.Хошимов**

«Зигзагообразное» планирование туристских маршрутов как инструмент пространственного развития и устойчивости туризма (на примере Ферганской области) ..... 13

## FALSAFA

**S.A.Muradov**

Hind o'lkasida tasavvuf ta'limotining rivojlanish tendensiyasi ..... 22

**L.S.Yuldasheva**

Abu Ali ibn Sinoning "Urjuza" she'riy dostonining falsafiy tahlili ..... 26

**M.T.Xidirov**

Postnoklassik ilmiy tafakkur shakllanishida bilim va faoliyat dialektikasining o'rni ..... 30

**D.I.Saydullayeva**

Axloqiy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi ..... 35

**F.A.Yuldashev**

Raqamli jamiyat sharoitida shaxs ehtiyoj-manfaatlari va ekzistensial jarayonlar: ijtimoiy-falsafiy tahlil ..... 38

**R.Orziboyev**

Yoshlar g'oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltirish integratsiyasida musiqiy merosning o'rni ..... 43

**C.Бусала**

Изучение искусственного интеллекта через призму философского пространства и времени ..... 47

**Y.A.Xudoyqulov**

Zamonaviy jamiyatda harbiy fanni yuksaltirishga doir ilmiy-amaliy tadqiqotlar metodologiyasi ..... 51

**R.S.Raupova, N.Rajabova**

Imom ash-Shotibiyning qiroat ilmidagi xizmatlari va uning ilmiy merosi ..... 55

**E.I.Tursunaliyeva**

Ijtimoiy davlat fenomeni: nazariy yondashuvlar va xalqaro tajriba ..... 58

**G.A.Raximova**

Milliy madaniyatni rivojlantirish va saqlab qolishning ijtimoiy omillari ..... 62

**M.Z.Jumayeva**

Globalashuv sharoitida yangi O'zbekiston: ulkan maqsadlar va zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim xususiyatlari ..... 67

**A.A.Qambarov**

Is'hoqxon to'ra ibrat ilmiy merosining falsafiy tahlili ..... 72

**B.S.Ganiyev, I.B.Xolmatov**

Jamiyatimiz yangi taraqqiyot bosqichida sportni – ijtimoiy fenomen sifatida qaror topishining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari ..... 77

**L.E.Tursunova**

Tilab Mahmudovning milliy estetik merosga qo'shgan hissasi ..... 83

**A.A.Mo'ydinov**

Ma'naviy amaliyot kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy talqini ..... 87

**M.K.Soipova**

Fazl ibn Ahmad qarashlarida axloqiy masalalarning falsafiy tahlili ..... 93

**M.K.Soipova**

Yangi O'zbekistonda yoshlarni komillikka erishishida Fazl ibn Ahmad merosining o'rni ..... 96

**G.A.Qamariddinova**

"Rashahotu aynil-hayot" asarida insonparvarlik va ma'rifatli jamiyat konsepsiyasi ..... 100



## AXLOQIY QADRIYATLAR VA YOSHLAR TARBIYASI

## НРАВСТВЕННЫЕ ЦЕННОСТИ И ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЕЖИ

## MORAL VALUES AND YOUTH EDUCATION

Saydullayeva Dilzodaxon Ilxomjon qizi



Farg'ona davlat universiteti magistranti

## Annotatsiya

Mazkur maqolada axloqiy qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi o'rni haqida so'z yuritilgan. Unda axloqiy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasining o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi. Yoshlar o'z madaniy merosini, urf-odatlarini va an'analarni bilib, ularni zamonaviy hayot bilan uyg'unlashtirish orqali o'z axloqiy fazilatlarini mustahkamlashi mumkin. Maqolada madaniy qadriyatlarning yoshlar axloqiga ta'siri, axloqiy tamoyillar asosida axloqiy tarbiya jarayonini samarali tashkil etish yo'llari ko'rsatiladi.

## Аннотация

В данной статье рассматривается роль нравственных ценностей в воспитании молодежи. Анализируется взаимосвязь нравственных ценностей и воспитания молодежи. Молодые люди могут укрепить свои нравственные качества, узнавая о своем культурном наследии, обычаях и традициях и интегрируя их в современную жизнь. В статье показано влияние культурных ценностей на нравственность молодежи, способы эффективной организации процесса нравственного воспитания на основе нравственных принципов.

## Abstract

This article discusses the role of moral values in the upbringing of youth. It analyzes the relationship between moral values and the upbringing of youth. Young people can strengthen their moral qualities by learning about their cultural heritage, customs and traditions and integrating them with modern life. The article shows the influence of cultural values on the morality of youth, ways to effectively organize the process of moral upbringing based on moral principles.

**Kalit so'zlar:** Axloq, axloqiy qadriyatlar, axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar, yosh avlod tarbiyasi, ma'naviyat, ma'naviy barkamollik.

**Ключевые слова:** Этика, нравственные ценности, нравственное воспитание, национальные ценности, воспитание подрастающего поколения, духовность, духовное совершенство.

**Key words:** Ethics, moral values, moral education, national values, education of the younger generation, spirituality, spiritual perfection.

## KIRISH

Hozirgi zamonda vatanparvar, adolatli, insonparvar, xalqi, millati uchun halol xizmat qiladigan yosh avlodni tarbiyalab voyaga etkazish eng dolzarb mavzuga aylanib bormoqda. Yurtimiz kelajagi, Vatanimiz ravnaqi o'sib kelayotgan yosh avlod qo'lida ekan, bu masalaning muhim ahamiyatga egaligini idrok etishi har birimizning burchimizdir. Yoshlar Yangi O'zbekistonning harakatlanuvchi kuchi hisoblanadi, chunki aholining katta qismini 30 yoshgacha bo'lgan vatandoshlarimiz tashkil etadi. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev taklifi bilan 2016-yil 14-sentyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni hamda muhtaram prezidentimizning shu kungacha e'lon qilingan yoshlarga oid bir qator qarorlari fikrimizning yaqqol isboti bo'la oladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Buyuk jadid bobolarimizdan biri Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida axloqqa shunday ta'rif beradi: "Insonlarni yaxshilikg'a chaqiruvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur". Axloq — ma'naviyatning amalda namoyon bo'lishidir. Ilm, bilim, dunyoqarash, idrok va imon insonning xulq-atvorida o'ziga xos tarzda aks etadi. Insoniylik ma'naviyati esa axloqiy fazilatlar orqali namoyon bo'ladi. Axloq — insof va adolat, imoniylik va halollik, mehr va muruvvat, sahovatpeshalik va bag'rikenglik, rahmdillik va muruvvatlilik, mehribonlik va g'amhurlik singari ma'naviy tushunchalarini insonning hayotiy faoliyatida yuzaga chiqaradigan

ma'naviy hodisadir. Bu borada faylasuf olim E. Yusupovning "Axloq ijtimoiy munosabatlar zaminida alohida shaxs sifatida mavjud bo'lgan insonlarning o'z-o'zini idora qilish shakllari va me'yorlari, o'zaro muloqot va munosabatlarda ularga xos bo'lgan ma'naviy kamolot darajasining namoyon bo'lishidir" — degan fikri diqqatga sazovor. Chunki axloq yo'q joyda inson ijtimoiy shaxs sifatida shakllanmaydi, faqat axloq zaminidagina insonlarda xayotning mazmuni va maqsadi, jamiyat oldidagi burchi va mas'uliyati va boshqa axloqiy tushunchalar va normalarga muayyan munosabat shakllanadi.

Axloq - odob qoidalari va normalari xar bir xalqning qadriyatlarida muhim o'rin egallaydi. Unda o'sha xalqning turmush tarzi madaniy saviyasi, an'analari guruxi, dini ifodalanadi, aks etadi. Shuning uchun axloq-odob qoidalari va normalari o'sha xalqning bitmas tugalmas ma'naviy boyligi hisoblanadi va millat darajasida shakllanganlik darajasi deb qaraladi. Axloq-odob norma va qoidalari jamiyat taraqqiyoti bilan rivojlanib, o'zgarib boradi. Bunda qardosh xalqlar, mintaqada yashovchi xalqlar, millatlar urf-odatdani bir-biriga ta'sir ko'rsatadi. Ilg'or, qulay urf-odatlar, an'analar, an'analar esa qadriyatlar darajasiga ko'tariladi. O'zbekona, milliy axloqda ota-bobolarimizning tarixiy tajribalari, davrlar sinovidan o'tgan saboqlari jamuljamdir. Barkamol insonni axloqiy tarbiyalash, voyaga etkazish haqida mutafakkirlarimiz bir qator asarlar yaratishgan. Chunonchi, Kaykovusning "Qobusnoma", Sa'diyning "Guliston", "Bo'ston", Amir Temurning "Temur tuzuklari", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", Husayn Voiz Koshifiyning "Axloqi muhsiniy" va boshqalarni ko'rsatishimiz mumkin. Zamonamizning zabardast yozuvchilaridan bo'lgan Tohir Malikning "Odamiylik mulki. Axloq kitobi"da ham jamiyatimizning dolzarb vazifasi, ya'ni, yoshlar tarbiyasi haqida fikr yuritiladi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Axloqiy qadriyatlar - bu shaxsning xulq-atvori va tanlovini boshqaradigan yaxshilik va yomonlik mezonlari. Shaxsning axloqi jamiyat va hukumatdan, dindan yoki o'zidan kelib chiqishi mumkin. Axloqiy qadriyatlar kishilarning xulq-atvorida asrlar davomida shakllangan o'zaro munosabatlar, yurish-turish qoidalari: xushxulqlik, xushmuomalalik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, halollik, pokizalik, ezgulik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, vatanparvarlikdir.

Axloqiy qadriyatlarning jamiyatdagi o'rni beqiyos. Ular odamlar o'rtasida o'zaro hurmat va ishonchni mustahkamlash orqali ijtimoiy muhitni yaxshilaydi. Axloqiy qadriyatlar turli jamiyatlar uchun zarur bo'lgan umumiy axloqiy qoidalar va normalarni belgilaydi, ular fuqarolarning bir-biriga munosabatida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Axloqiy qadriyatlar shaxsning jamiyatdagi o'rnini belgilaydi va uning harakatlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Axloqiy qadriyatlar vositasida tashkil etiladigan tarbiya - axloqiy tarbiya deyiladi jamiyat ma'naviy hayotidagi muhim ijtimoiy hodisa bo'lib, odob-axloq tizimini, axloqiy fazilatlarini zamon talablari asosida har qaysi avlod ongiga singdirish shakli. Axloqiy tarbiya adabiyot, psixologiya, etika va estetika fanlari o'rganadigan ilmiy kategoriyadir. Axloqiy tarbiya deganda o'sib kelayotgan avlodda xulq-odob me'yorlariga mos keladigan, zamon talablariga javob beradigan insoniy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan ilmiy va amaliy harakatlar tizimi tushuniladi. Insonning axloqiy hayoti uning axloqiy tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq. Zero axloqiy tarbiya insonning shaxs bo'lib etishuvini ta'minlaydigan uzluksiz jarayonlaridan biri. Unda individ axloqiy qadriyatlarni anglab etadi, o'zida axloqiy fazilatlarini barqaror etadi, axloqiy tamoyillar va me'yorlar asosida yashashga o'rganadi. Axloqiy tarbiya insoniyat tarixi mobaynida ikki muhim masalaga javob izlaydi: bulardan biri - qanday yashamoq kerak, ikkinchisi - nima qilmog' - u, nima qilmaslik lozim. Ana shu savollarga javob izlash jarayoni axloqiy tarbiyaning amaliy ko'rinishidir.

Shunday qilib, axloqiy tarbiya inson farzandini komillikka etkazish yo'llaridan biri. Uning vositalari ko'p. Ularning bir qismi an'anaviy tarbiya vositalari bo'lsa, yana bir qismi zamonaviy vositalar. Odatda, har ikki turdagi vositalardan foydalaniladi. Chunonchi, maktabgacha bo'lgan axloqiy tarbiyada ertak va rivoyatlar vositasidagi an'anaviy tarbiya bilan o'yinchoqlar va o'yinlar vositasidagi zamonaviy tarbiya muvaffaqiyatli qo'llaniladi; bunda bola qizg'anchilik, g'irromlik qilmaslikka, halol bo'lishga o'yinlar yordamida da'vat etiladi. Bolalar axloqiy tarbiyasida televideniye, radio, qo'g'irchoq teatri, kino san'ati katta rol o'ynaydi. Umuman, axloqiy tarbiyaning eng kuchli vositasi — san'at. Bu vosita aholining barcha tabaqasini, turli yoshdagi shaxslarni qamrab oladi. Ayniqsa, san'atning badiiy adabiyot turi keng qamrovli. Ertakdan tortib romangacha bo'lgan janrlarda chop etilgan asarlar shaxsning axloqiy shakllanishida ulkan xizmat ko'rsatadilar. Ular orqali kitobxon tarbiyalanuvchi sifatida ezgulik va yovuzlik nimaligini badiiy idrok etadi; ideal tanlashda ham ularning ahamiyati katta. Hozirgi kunda yoshlarimiz orasida kitobxonlik keng targ'ib qilinishining sababi ham ulardagi ma'naviy-axloqiy tarbiyani yuksaltirishga qaratilgan. "Yosh kitobxon" tanlovi 2017-yildan

## FALSAFA

buyon muntazam o'tkazib kelinmoqda. Unda 10 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar qatnashishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi prezidentining «Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Ulug' ajdodlarimizning aql-zakovati va badiiy dahosi bilan yaratilgan noyob asarlar, xususan, matematika, mineralogiya, astronomiya, kimyo, tibbiyot, farmatsevtika, me'morlik, tarix, adabiyot, san'at, ilohiyot, falsafa va boshqa sohalarga oid manbalar nafaqat bizning xalqimiz, balki jahon ahlining bebaho boyligi hisoblanadi. Ana shunday beqiyos merosimiz asosida tashkil etilgan «Yosh kitobxon» tanlovida 250 ming nafarga yaqin yosh ishtirok etib, tanlov g'oliblariga «Prezident sovg'asi» – engil avtomashina topshirilgani yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyati rivojlanishiga muhim ta'sir o'tkazdi, deyiladi qarorda.

## XULOSA

Yoshlar jamiyatning eng katta va harakatchan qismi hisoblanadi. Shuning uchun ham ularni har doim kuzatib, nazorat qilish zamonning dolzarb masalalari qatoriga kiradi. Qaysi mamlakatda yosh avlod ma'naviy tarbiyasi e'tiborsizlikka uchrasa, g'oyaviy bo'shliq yuzaga keladi. Bunday vaziyat yot g'oyalarning yoshlar hayotiga ta'sirini kuchaytirib, milliy qadriyatlarga putur etkazishi mumkin. Hozirgi globallashuv sharoitida har qanday buzg'unchi g'oyalarni targ'ib qilayotgan kuchlar bilan kurashishda yoshlarimizni ma'nan barkamol qilib tarbiyalash zamonamiz ziyolilarining muqaddas burchidir. Ma'naviy barkamol, o'z milliy qadriyatlariga sodiq, vatanparvar, insonparvar, halol, adolatparvar yoshlar xalqimizning milliy boyligi, buyuk kelajagidir.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. «Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3721-sonli qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.05.2018-y., 07/20/3721/0851-son.
2. Abdulla Avloniy «Turkiy gulliston yoxud axloq». -Toshkent «O'qituvchi» 1992, 3-b.
3. Ochilova B.M «Axloq falsafasi». Darslik. -Toshkent „Ijod Print“ 2019.
4. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. T., Universitet, 1998, 38-b.
5. Matchanova B.I "Ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning jamiyat ijtimoiy barqarorligidagi roli". Maqola [www.oriens.uz](http://www.oriens.uz) 2024, 4-noyabr.
6. [Oyina.uz/uz/teahause/1324](http://Oyina.uz/uz/teahause/1324)